



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari

Mutalliyeva Malika Boxodirovna –

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: malikamutalliyeva89@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-8842-1138>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari, kommunikativ topshiriqning mazmuni, an'anaviy mashqlardan farqli jihatlari, dialogik va monologik nutqni rivojlantirish, lug'at va grammatik birliklarni faol nutqqa ko'chirish, o'quvchilarning o'zaro hamkorligi va gapirishga tayyorligini oshirishdagi imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ingliz tili, gapirish ko'nikmasi, kommunikativ topshiriq, kommunikativ kompetensiya, dialogik nutq, monologik nutq, A1 daraja, yosh til o'rganuvchilar.

Дидактические возможности коммуникативных заданий в развитии навыков говорения на английском языке у учащихся начальных классов

Аннотация. В данной статье рассматриваются дидактические возможности коммуникативных заданий в развитии навыков говорения на английском языке у учащихся начальных классов. Раскрываются содержание и сущность коммуникативного задания, его отличительные особенности по сравнению с традиционными упражнениями, а также возможности его использования для развития диалогической и монологической речи. Особое внимание уделяется активизации лексических и грамматических единиц в устной речи, организации взаимодействия между учащимися и повышению их готовности к речевому общению на английском языке.

Ключевые слова: начальное образование, английский язык, навыки говорения, коммуникативное задание, коммуникативная компетенция, диалогическая речь, монологическая речь, уровень A1, юные изучающие иностранный язык.

Didactic potential of communicative tasks in developing primary school students' english speaking skills

Annotation. *This article examines the didactic potential of communicative tasks in developing primary school students' English speaking skills. It discusses the nature of communicative tasks, their distinctive features compared with traditional exercises, and their potential for developing dialogic and monologic speech, activating vocabulary and grammatical structures in spoken communication, promoting learner interaction, and increasing students' willingness to speak English.*

Keywords: *primary education, English language, speaking skills, communicative task, communicative competence, dialogic speech, monologic speech, A1 level, young language learners.*

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab samarali o'rgatish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy til ta'limining asosiy maqsadi o'quvchiga faqat grammatik qoidalar va alohida leksik birliklarni o'rgatish emas, balki egallangan bilimlardan real kommunikativ vaziyatlarda mustaqil va maqsadga muvofiq foydalana olish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish keyingi bosqichlarda kommunikativ kompetensiyaning izchil shakllanishi uchun muhim didaktik asos vazifasini bajaradi. Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlari chet tilini o'qitishda alohida metodik yondashuvni talab etadi. Mazkur yosh davrida bolalarning taqlid qilish qobiliyati, nutqiy faolligi, o'yin va muloqotga bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'lsa-da, ularning diqqatini uzoq vaqt bir faoliyatga qaratib turish imkoniyati nisbatan cheklangan. Shu sababli an'anaviy tarzda so'zlarni yodlash, grammatik qoidalarini takrorlash yoki tayyor gaplarni mexanik ravishda qayta aytishga asoslangan mashqlar har doim ham o'quvchining real muloqotga kirishish qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Bunday sharoitda kommunikativ topshiriqlardan maqsadli foydalanish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ topshiriq o'quvchini til birliklarini shunchaki takrorlashga emas, balki muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshirish uchun ulardan faol foydalanishga yo'naltiradi. Savol-javob, juftlik va guruhda ishlash, rolli o'yin, axborot almashish, rasm asosida suhbat tuzish, vaziyatli dialog, hikoya qilish hamda muammoli kommunikativ vazifalar o'quvchilarning ingliz tilida tabiiyroq muloqot qilishiga sharoit yaratadi. Bunda til o'rganish jarayoni "qoidani bilish"dan "til vositalaridan foydalanish" bosqichiga o'tadi.

Kommunikativ topshiriqlarning muhim didaktik imkoniyatlaridan biri o'quvchilarning passiv lug'at zaxirasidagi birliklarni faol nutqqa ko'chirishidir. O'quvchi yangi so'z yoki grammatik konstruksiyani faqat mashq doirasida emas, balki o'z fikrini ifodalash, savol berish, suhbatdoshiga javob qaytarish, biror predmetni tavsiflash yoki voqeani hikoya qilish jarayonida qo'llaydi. Natijada leksik-grammatik bilim va amaliy nutq faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik mustahkamlanadi. Kommunikativ topshiriqlar o'quvchilarning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Juftlik va kichik guruhlardagi faoliyat davomida ular navbat bilan gapirish, suhbatdoshini tinglash, savol berish, javobni aniqlashtirish, fikr bildirish va birgalikda kommunikativ vazifani bajarishni o'rganadilar. Bunday hamkorlik boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida gapirishga bo'lgan psixologik tayyorligini oshirish, xato qilishdan qo'rqishni kamaytirish va o'z imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. CEFRning boshlang'ich, xususan A1 darajasiga mos ta'lim jarayonida o'quvchining sodda kundalik vaziyatlarda o'zi, oilasi, maktabi, qiziqishlari va atrofidagi predmetlar haqida oddiy jumlar bilan muloqot

qila olishi muhimdir. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ topshiriqlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, til darajasi, mavjud lug'at zaxirasi va kommunikativ ehtiyojlariga muvofiq tanlash zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy chet tili ta'limida o'quvchilarning tilga oid bilimlarni egallashi bilan bir qatorda, ushbu bilimlardan turli kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq foydalana olishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon suhbatdosh nutqini tushunish, savol berish va javob qaytarish, axborot almashish hamda o'z fikrini til darajasiga mos ravishda ifodalash kabi nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida mazkur ko'nikmalarni izchil rivojlantirish o'quvchilarning ingliz tilidagi dastlabki kommunikativ tajribasini shakllantirish hamda keyingi bosqichlarda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim asos yaratadi.

Respublikamizda chet tillarni o'qitishga qo'yilgan davlat ta'lim talablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi CEFRning A1 darajasiga muvofiq belgilangan [1]. Ushbu talablar o'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini sinflar kesimida izchil rivojlantirishni nazarda tutadi. I sinfda salomlashish va xayrlashish, uzr so'rash, o'zini tanishtirish, oila haqida sodda fikr bildirish hamda tanish mavzularda savol-javob qilish ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutilgan. II sinfda maktab, o'quv fanlari va hafta kunlari haqida gapirish, tanish mavzularda savol-javob qilish va qisqa dialoglarda ishtirok etishga e'tibor qaratiladi. III sinfda o'quvchilarning uy va xonani tasvirlash, tanish mavzularda dialogik va monologik nutq tuzish, iltimos bilan murojaat qilish hamda nutqiy etiket birliklaridan foydalanish ko'nikmalari rivojlantiriladi. IV sinfda yashash manzilini tasvirlash, sport turlari yuzasidan fikr bildirish, savol-javob qilish, mikrosuhbatlarda ishtirok etish, shuningdek, o'qilgan yoki tinglangan matn mazmunini og'zaki bayon qilishga oid talablar belgilanadi [1]. Mazkur talablarni amaliyotga tatbiq etishda kommunikativ topshiriqlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining gapirish ko'nikmalarini maqsadli va izchil rivojlantirish imkonini beradi. Kommunikativ topshiriq muayyan nutqiy maqsadni amalga oshirish jarayonida o'quvchining chet tilidan amaliy foydalanishiga yo'naltirilgan o'quv faoliyati sifatida tavsiflanadi. Ushbu turdagi topshiriqlar ma'lumot almashish, savol berish va javob qaytarish, tanlovni ifodalash va asoslash, suhbatdosh fikriga munosabat bildirish kabi nutqiy harakatlarni bajarishni nazarda tutadi. Til birliklarining o'zlashtirilishi ularning muayyan kommunikativ vaziyat va nutqiy maqsad doirasida qo'llanishi bilan bog'lanadi. Kommunikativ topshiriqlarning didaktik xususiyati o'rganilgan til materialini amaliy nutqiy faoliyatga tatbiq etishga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Masalan, *This is my mother* jumlasini takrorlash orqali o'quvchi muayyan leksik-grammatik tuzilma va uning talaffuzini mashq qiladi. *Find two things you and your partner have in common* topshirig'i esa o'quvchidan suhbatdoshi bilan axborot almashish, olingan ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash va umumiy jihatlarni aniqlashni talab etadi. Natijada o'zlashtirilgan leksik va grammatik birliklarning kommunikativ vazifani bajarish jarayonida amaliy qo'llanishi ta'minlanadi.

Boshlang'ich sinflarda kommunikativ topshiriqlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, til tayyorgarligi va bilish faoliyatining o'ziga xos jihatlarni hisobga olish muhim metodik shartlardan hisoblanadi. Ko'rgazmali vositalar, rasmlar, predmetlar, kartochkalar, rolli vaziyatlar va o'yin elementlari nutqiy faoliyatni tashkil etishda mazmuniy hamda vizual tayanch vazifasini bajaradi. L.Cameron yosh til o'rganuvchilar bilan ishlashda til materialini mazmunli kontekst va faoliyat bilan bog'liq holda o'zlashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi [4]. Kommunikativ topshiriqlarning mazmuni va bajarish usullarini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tanlash ularning ingliz tilidan amaliy foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kommunikativ topshiriqlarning didaktik imkoniyatlaridan biri o'quvchilarning dialogik nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bilan

belgilanadi. Dialogik nutq o'zaro bog'langan nutqiy harakatlar asosida shakllanib, savol berish, javob qaytarish, axborotni aniqlashtirish, suhbatdosh fikriga munosabat bildirish va suhbatni davom ettirish kabi kommunikativ amallarni qamrab oladi. Boshlang'ich bosqichda ushbu nutqiy harakatlarning tanish mavzular doirasida tashkil etilishi o'quvchilarning mavjud leksik-grammatik bilimlarini amaliy nutqiy faoliyatga tatbiq etishiga xizmat qiladi. Masalan, My Family mavzusida Have you got a brother?, What is his name?, How old is he? kabi savollar asosida tashkil etilgan juftlikdagi topshiriqlar mavzuga oid til birliklarini o'zaro axborot almashish jarayonida qo'llashga yo'naltiriladi.

Kommunikativ topshiriqlarning turli suhbatdoshlar bilan takroriy bajarilishi o'zlashtirilgan leksik-grammatik birliklarni turli nutqiy vaziyatlarda qo'llash tajribasini kengaytiradi. Bu jarayon dialogik nutqning interaktiv xususiyatlarini egallash, suhbatdosh nutqiga muvofiq javob shakllantirish va kommunikativ vaziyatga mos til vositalarini tanlash ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Kommunikativ topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari monologik nutqni rivojlantirish jarayonida ham namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda monologik nutqni shakllantirish o'quvchilarning mavjud til resurslari va tayyorgarlik darajasiga muvofiq bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Dastlab rasm, tayanch so'zlar, savollar va gap modellari yordamida qisqa nutqiy birliklarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi. O'quvchining nutqiy tajribasi kengayib borgan sari tayanch vositalar qisqartirilib, fikrni mazmunan izchil va nisbatan mustaqil ifodalashga yo'naltirilgan topshiriqlarga o'tiladi. Masalan, My Room mavzusini o'rganishda There is a bed. There is a desk. My books are on the desk kabi til birliklari dastlab tayanch model sifatida qo'llanilishi mumkin. Keyingi bosqichda Describe your room to your partner topshirig'i orqali o'quvchi o'zlashtirilgan leksik va grammatik vositalardan foydalanib, xonasini mustaqil tasvirlashga yo'naltiriladi. Mazkur ketma-ketlik tayanch asosidagi nutqiy faoliyatdan mazmunan mustaqilroq monologik bayonga o'tishni ta'minlab, o'quvchilarning o'rganilgan til materialini yangi kommunikativ vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda, kommunikativ topshiriqlar o'zlashtirilgan leksik birliklarni faol nutqda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich bosqichda so'zlarning ma'nosini o'zlashtirish ularni mustaqil nutqda qo'llash ko'nikmasining shakllanganligini to'liq ifodalamaydi. Shu sababli yangi leksik birliklarni muayyan kommunikativ vazifa bilan bog'liq holda qo'llash uchun nutqiy vaziyatlar yaratish muhim hisoblanadi. Masalan, School Bag mavzusida pen, pencil, book, ruler kabi leksik birliklarni o'zlashtirgan o'quvchilarga What is in your school bag? savoli asosida juftlikda axborot almashish topshirig'ini berish mumkin. Mazkur faoliyat o'rganilgan so'zlarni kommunikativ maqsadga muvofiq tanlash va nutqda qo'llash tajribasini shakllantiradi. Leksik materialning o'quvchiga tanish vaziyatlar va shaxsiy tajriba bilan bog'lanishi uning mazmuniy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'quvchi yangi so'zlarni alohida til birliklari ko'rinishida yodlashdan ularni muayyan predmet, harakat, vaziyat va kommunikativ maqsad bilan bog'liq holda qo'llashga o'tadi. Natijada o'zlashtirilgan lug'at birliklarining faol nutqda qo'llanish doirasi kengayib, keyingi kommunikativ vaziyatlarda ulardan mustaqil foydalanish uchun zarur asos shakllanadi.

Kommunikativ topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari grammatik materialni amaliy nutqiy faoliyat bilan bog'lashda ham namoyon bo'ladi. Grammatik birliklarni kommunikativ vaziyat doirasida qo'llash o'quvchiga ularning shakliy xususiyatlari bilan birga nutqiy funksiyasini anglash imkonini beradi. Masalan, Present Simple shakllarini o'zlashtirish jarayonida What do you do after school? yoki Do you play football? kabi savollar asosida tashkil etilgan juftlikdagi faoliyat o'quvchilarning mazkur grammatik tuzilmalardan o'z kundalik faoliyati haqida axborot berish va suhbatdoshidan ma'lumot olish maqsadida foydalanishiga yo'naltiriladi. Grammatik materialni kommunikativ faoliyatga kiritish uning

shakli va qo'llanish xususiyatlarini dastlabki bosqichda tushuntirish hamda boshqariladigan mashqlar orqali mustahkamlashni nazarda tutadi. Keyingi bosqichlarda o'zlashtirilgan grammatik birliklarni mazmunli nutqiy vazifalar doirasida qo'llashga yo'naltirilgan topshiriqlarning berilishi grammatik bilimlarning amaliy nutqiy faoliyat bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Ushbu izchillik o'quvchilarning grammatik birliklarni muayyan kommunikativ maqsad va vaziyatga muvofiq tanlash hamda qo'llash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ topshiriqlarning navbatdagi didaktik imkoniyati o'quvchilarning o'zaro nutqiy hamkorligini tashkil etish bilan bog'liq. Juftlik va kichik guruhlarda bajariladigan topshiriqlar jarayonida o'quvchilar axborot almashadi, fikrlarni taqqoslaydi, o'z munosabatini bildiradi, umumiy qarorga keladi va hamkorlikda muayyan nutqiy natijani shakllantiradi. Shu asosda ingliz tilidan foydalanish individual nutqiy harakatlar doirasidan o'zaro ta'sirga asoslangan kommunikativ faoliyatga kengayadi. O'quvchining suhbatdosh fikrini tinglashi, unga munosabat bildirishi va o'z nutqiy harakatlarini muloqot mazmuniga muvofiqlashtirishi interaktiv gapirish ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Kommunikativ topshiriqlarni tashkil etishda o'quvchilarning emotsional va ijtimoiy jihatdan qulay ta'lim muhitida faoliyat yuritishi ham e'tiborga olinishi lozim. Kichik yoshdagi ingliz tili o'quvchilari bilan olib borilgan tadqiqotlarda sinf jamoasiga mansublik hissi va ta'lim jarayonidan ijobiy emotsional taassurot olish kommunikativ faollik bilan bog'liq omillar sifatida qayd etilgan [5]. Kommunikativ topshiriqlarni hamkorlikka asoslangan, o'quvchilarning o'zaro qo'llab-quvvatlashini rag'batlantiruvchi va ingliz tilida fikr bildirish uchun psixologik jihatdan qulay sharoit yaratadigan shakllarda tashkil etish maqsadga muvofiq. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ topshiriqlar o'zlashtirilgan leksik birliklar va grammatik qoidalarni amaliy nutqda qo'llash imkonini yaratadi. Savol-javob, axborot almashish, rasm asosidagi topshiriqlar va rolli o'yinlar dialogik hamda monologik nutqni rivojlantirish, o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish va o'zaro hamkorligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ topshiriqlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, til darajasi va A1 talablariga muvofiq tanlash hamda bosqichma-bosqich murakkablashtirish ularning mustaqil nutqiy faoliyatga o'tishiga imkon beradi. Natijada o'quvchilarda ingliz tilida fikr ifodalash, axborot almashish va turli kommunikativ vaziyatlarda muloqotga kirishish ko'nikmalari izchil rivojlanadi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish chet tilini o'qitish jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ topshiriqlar til materialini o'zlashtirish bilan real nutqiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash imkonini beradi. Ular o'quvchini tayyor til birliklarini mexanik takrorlovchi subyektdan kommunikativ vazifani mustaqil hal qilishga intiluvchi faol muloqot ishtirokchisiga aylantiradi.

Kommunikativ topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari, avvalo, o'quvchilarning dialogik va monologik nutqini rivojlantirish, lug'at boyligini faol nutqqa olib kirish, grammatik konstruksiyalardan kommunikativ vaziyatda foydalanish hamda nutqning mazmuniy va mantiqiy izchilligini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Juftlik va guruhli ish, rolli o'yinlar, vaziyatli dialoglar, rasm asosidagi suhbatlar va qisqa monologik topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda tabiiy kommunikativ muhit yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, kommunikativ topshiriqlarning samaradorligi ularning murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirish bilan bevosita bog'liq. Dastlab namunaga asoslangan va o'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan topshiriqlardan foydalanib, keyinchalik o'quvchini mustaqil fikr ifodalashni talab qiluvchi vazifalarga olib

o'tish maqsadga muvofiq. Bu jarayonni shartli ravishda: namuna asosida gapirish → boshqariladigan muloqot → yarim mustaqil muloqot → mustaqil kommunikativ faoliyat tarzida tashkil etish mumkin.

Kommunikativ topshiriqlar o'quvchilarning gapirishga bo'lgan motivatsiyasi va psixologik tayyorligini oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi. O'quvchi ingliz tilini faqat baho olish uchun bajariladigan o'quv predmeti sifatida emas, balki o'z fikrini ifodalash va boshqa insonlar bilan muloqot qilish vositasi sifatida qabul qila boshlaydi. Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda kommunikativ topshiriqlardan tizimli, maqsadli va o'quvchilarning yosh hamda individual xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishning muhim didaktik shartlaridan biridir. Bunda ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishi "til haqida bilim berish"dan "til orqali muloqot qilishni o'rgatish"ga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari. Chet tillar bo'yicha ta'lim mazmuni va tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar.
2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
3. Xamrayeva G. I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda mavzuga asoslangan yondashuvning ahamiyati // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3, № 4.
4. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
5. Allen K. A., Rajae Pitehnoe M., Arslan G., Boyle C., McGlinchey C., Arabmofrad A. Belonging and enjoyment as cornerstones of communication in young English as a foreign language learners // Current Psychology. – 2025.
6. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
7. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.